

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY XOTIRANING ROLI VA UNI TARG‘IBOT QILISHNING YO‘NALISHLARI

*Katta o‘qituvchisi f.f.b.f. doktori
(PhD) Dotsent podpolkovnik
Saparov Bobir Xudayberdievich*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy xotiraning ahamiyati tahlil qilinadi. Tarixiy xotira nafaqat milliy o‘zlikni anglash, balki yoshlarda mas’uliyat, g‘urur va Vatanga bo‘lgan sadoqatni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Maqolada tarixiy xotirani targ‘ib qilishning samarali yo‘nalishlari, jumladan, ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, tarixiy joylar va muzeylarga ekskursiyalar tashkil etish kabi usullar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali yoshlarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda tarixiy qadriyatlarning roli o‘rganiladi. Maqola yoshlar tarbiyasida tarixiy xotira va sog‘lom hayot tamoyillari uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy xotira, sivilizatsiya, milliy an’analar, pedagogik jarayon, sharq mutafakkirlari, “Avesto”, vatanparvarlik, “Mehr” operatsiyasi, milliy vatanparvarlik, psixologiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение исторической памяти в воспитании молодежи в духе патриотизма. Историческая память анализируется как средство формирования у молодежи чувства ответственности, гордости и преданности Родине. В статье выделяются эффективные направления продвижения исторической памяти, включая инновационные подходы в системе образования, использование средств массовой информации, организацию экскурсий в исторические места и музеи. Статья также включает рекомендации по гармоничному сочетанию исторической памяти и принципов здорового образа жизни в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: Историческая память, цивилизация, национальные традиции, педагогический процесс, восточные мыслители, Авеста, патриотизм, операция «Мехр», национальный патриотизм.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraning o‘rni yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi, buyuk ajdodlarining qoldirgan boy merosi yosh avlodni milliy o‘zlikni

anglashga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning asosiy manbai hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash jarayonida tarixiy xotiradan foydalanish nafaqat ularning ma'naviy yetukligi, balki jismoniy va ruhiy sog'lomligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Mazkur mavzu dolzarbligi shundaki, bugungi kunda globallashtirish oqibatida yoshlar o'rtasida begona madaniyatlarning salbiy ta'siri ortib bormoqda. Ushbu holatga qarshi kurashish uchun milliy tarix va qadriyatlarni keng targ'ib etish, yoshlarning milliy g'ururini mustahkamlash, ularning hayotga faol munosabatini shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tarixiy xotirani yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi bilan uyg'unlashtirish orqali ularni ma'naviy yetuk va vatanparvar insonlar sifatida shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida tarixiy xotiraning o'rni, uni targ'ib qilishning samarali yo'llari va bu jarayonda sog'lom turmush tarzining ahamiyati keng ko'lamda tahlil qilinadi.

Ma'naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom, Vatan sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniquqan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy g'oya asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga bugungi kunda ijtimoiy zarurat tug'ilgan bo'lib, uni ta'lim-tarbiya jarayonida aks ettirish bugungi kun talabi hisoblanadi. Vatan muqaddas, undan qimmat, undan aziz, shirin, ulug' ne'mat, boylik yo'q. Vatanni qadrlagan, o'z yurtidan cheksiz faxrlangan inson oilasi, xalqi, atrof muhitga, jamiyatiga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'ladi.

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanib kelgan. Ma'naviy qashshoq shaxs hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd munosabatda bo'ladi. Loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlarni keltirib chiqarishini tarix isbotlab bergan. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot xisoblanadi. Shu sababli keksa ajdodlarimiz doimo yosh avlodni ma'naviy dunyosini shakllantirishni oliy maqsad qilib belgilab kelgan.

Tarixiy xotira zamonlarni bog'lovchi bir halqa maqomida tadqiq qilinsa, unda avloddan avlodga o'tadigan meros albatta o'rganish, taqdim etish kabi jarayonlarni boshdan kechiradi va bu jarayonda pedagogikaning mohiyatini ifoda etuvchi ikki muhim jarayon, ya'ni ta'lim va tarbiya sifatlari qo'llaniladi. Va tabiiyki, tarixiy xotira shakllangandan keyin, zaruratga qarab uning yanada rivojlantirishiga ham ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Demak, shakllantirish va rivojlantirish zanjir ketma-ketligida kelib, yaxlit pedagogik amallarni hosil qiladi. Qolaversa, tarixiy o'tmish bugun va erta uchun tarbiya vositasi sifatida xizmat qilish maqomiga ega. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, har qanday tarixnavislik negizida, avvalo, o'tmishni

bugun bilan bog‘lash, kelajakka istiqbol tuzishni rejalashtiradigan tarixiy ong yotadi¹. Tarixiy xotira orqali yoritiladigan har qanday tadbir xalq va milliy an‘analar bilan oziqlantirilsa, uning ta‘sir kuchi ortib, ta‘sir doirasi kengayaveradi. Demak, tarixiy xotira va xalq an‘analarining umumiylik va uzviylik jihatlarini o‘rganib, ularni tarbiyaviy maqsadlarga yo‘naltirish, tegishli fanlar doirasida muhim ilmiy tadqiqotlar qatoridan o‘rin olishi lozim.

O‘zbekiston nafaqat Sharq, balki dunyo sivilizatsiya beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan oladi. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Miloddan avvalgi va undan keyin qurilgan imoratlar, inshootlar, shu kungacha ko‘rku fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik, me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi.

O‘tmishda bo‘lib o‘tgan urush, tabiiy ofat sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugungi kunda davlat kutubxonalarida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me‘morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma‘naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi. Ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalar, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarni ifoda etuvchi nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish davr talabi xisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari bugungi kunga kelib milliy ma‘naviy qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilayotgani, suhbatlar, muloqotlarda fikrlar rang-barangligi paydo bo‘layotgani ayniqsa diqqatga sazovor. Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o‘zlarini mas‘ul sezib, bu bahslarda daxldorlik tuyg‘usi bilan ishtirok etayotgani quvonarli hol. Davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan paytda o‘zimizning zamon va makondagi o‘rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz kerak. Millat, mamlakat haqida gapirishning o‘ziga xos mas‘uliyati bor. Muayyan voqea, shaxsga munosabat bildirayotganda, bu faqat bir kishi yoki muayyan toifadagi kishilarning nuqtai nazari bo‘lishi mumkinligini unutmash lozim. Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan biryozlama fikr odamlarni chalg‘itadi. Aql-zakovatli, yuksak ma‘naviyatli kishilarni tarbiyalansa, maqsadga erishiladi. Ma‘naviyat, ma‘rifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma‘rifatchi fidoyi bo‘lmog‘i kerak.

Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan

¹ Репина Л.П. Историческая наука на рубеже XX–XXI вв. // – М.: Кругъ, 2011. – 79 с.

bu millat XVII-XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi. So‘nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi. Ushbu xatolarni to‘g‘irlash lozim. Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Kim bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyatning har bir a‘zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta‘siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixidan judo bo‘lish - hayotdan judo bo‘lish demak.

Qadimgi qo‘lyozma xisoblangan "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob Xorazmda miloddan avvagli bir ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelgan, unda keltirilgan ma‘lumotlarning eng qadimiy qismlari miloddan avvalgi ikki ming yillik oxiri bir ming yillik boshiga oid bo‘lib, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlar biz avlodlarga qoldirgan ma‘naviy, tarixiy meros mavjud. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma‘naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma‘naviy yetuk, jismonan sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Bola ruhiga qilinadigan ta‘sir, avvalo, ona mehri, ona qalbidagi muhabbat bilan yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Keksalarimiz alladagi bola ruhiga iymon, vatanga muhabbat, xalqiga hurmat, o‘zi tug‘ilgan oilaga izzat singdirish fazilatini ko‘p qayd qilganlar.

Vatanparvarlik deganda bizda avvalo makon tuyg‘usi tushuniladi. Tug‘ilgan, voyaga yetgan makonni anglash, tushunish jarayonida vatanparvarlik tushunchasi paydo bo‘ladi. Ana shu tushuncha orqali biz o‘z yurtimizning qaerda, qaysi mintaqada joylashgani, betakror tabiati, daryo va tog‘lari, odamlarini aniq tasavvur qilamiz.

Fan va amaliyotda yoshlarni zamonaviy tarbiyalashning eng muhim muammolarini tushunishga yangi yondashuvlar sharoitida fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi bugungi kunda nafaqat nazariy darajada, balki haqiqiy ijtimoiy-pedagogik hodisa, pedagogikada sifat jihatidan yangi hodisa sifatida qaralmoqda².

Shaxsning fuqarolik sotsializatsiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu shaxsning Vatan bilan identifikatsiyasidir. Ma‘lumki, ko‘p millatli O‘zbekiston o‘zining mustaqil shakllanishining dastlabki bosqichlarida monoetnik mamlakatlar bilan taqqoslaganda fuqarolarning milliy o‘zini o‘zi identifikatsiyasi va ijtimoiy birlashish sohasida ancha muhim muammolarni boshdan kechirdi. Biroq, barcha etnik guruhlar va xalqlarni « O‘zbekiston - bizning umumiy uyimiz» milliy g‘oyasi atrofida

² Djilkishieva M.S. Grajdansko-patrioticheskoe vospitanie studencheskoy molodeji kazaxstana // Sovremennye problemi nauki i obrazovaniya. – 2012. – № 4.; URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=6587> (data obrasheniya: 23.11.2020).

birlashtira oldi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar ongida fuqarolik toifasi, avvalo, yashash mamlakati bilan, u tug‘ilgan va o‘sgan davlatga tegishli bo‘lishi, vatanparvarlik bilan Vatan manfaatlarini himoya qilishi, konstitutsiyaviy huquqlar bilan, milliy qadr-qimmat bilan, xavfsizlik bilan va boshqa sabablarga ko‘ra yaxshi hayot uchun ishlashga tayyorligi bilan bog‘liq.

Fuqarolarning o‘z-o‘zini identifikatsiya qilishi, harbiy xizmatga munosabat, yoshlarning milliy va diniy ongi kabi muammolar ularning vatanparvarlik kayfiyatining darajasini belgilaydi. Bugungi kunda, umuman olganda, avangardida talabalar jamoasi bo‘lgan O‘zbekiston yoshlarining ma‘naviy, madaniy va vatanparvarlik salohiyati ko‘rsatkichlarining nisbatan o‘shishi kuzatilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ichki siyosatida kuzatilayotgan keng qamrovli islohotlar, ochiqlik va yangilanishlar, mamlakatning tashqi siyosatida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ekti sifatida, mintaqa va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e’tirof etmoqda.

Ma‘lumki, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoev qo‘shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

2020-yil – «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» Davlat dasturi doirasida O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini, jumladan, Marziy Osiyo yo‘nalishida ham izchil davom ettirdi.

Biroq, o‘zlarini vatanparvar deb biladigan bugungi ayrim yoshlar uchun «vatanparvarlik» tushunchasi noaniq, mavhum, ya’ni vatanparvarlik ular tomonidan shaxsga aniq harakatlar va xatti-harakatlar shakllari uchun alohida javobgarlikni yuklamaydigan tuyg‘u sifatida qabul qilinadi. Yoshlar orasida egotsentrizm va hayotga iste’molchi munosabati ruhi tarqalmoqda. O‘zining ibtidoiyligi tufayli yoshlar uchun tushunarli bo‘lgan ommaviy madaniyatning keng tarqalishi ma‘naviy qashshoqlikka, axloqiy tanazzulga va intellektual passivlikka olib keladi. Shu nuqtai nazardan, haqiqiy vatanparvarlik so‘zlar emas, balki mamlakat hayoti bilan bog‘liqlik va uning muammolarini hal qilishda o‘z faol ishtiroki ekanligini tushuntirish uchun yoshlar bilan samarali maqsadli ish olib borish zarur³.

³ Lutovinov V. I. Grajdansko-patrioticheskoe vospitanie segodnya // Pedagogika. – 2006. – № 5. – S. 52–59.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy xotiraning roli va uni targ'ibot qilishning yo'nalishlari orasida san'at aloxida o'rin egallaydi. San'at millat, elat yoki til tanlamaydi. U tomoshabinni o'ziga maftun eta olish, ortidan ergashtirish xususiyatiga ega kuch. Xalqni ruhlantirish, vatanparvarlik hissini kuchaytirish, ozodlik va hurlik uchun kurashish kabi g'oyalar singdirilgan filmlar hamma davrlar uchun birdek ahamiyatli, qadrli.

Bugungi kunda o'zbek kinoijodkorlari ham yurt tinchligi, vatan ozodligi, turmush farovonligi, osuda hayot yo'lida kurashgan va kurashayotgan mard o'g'il-qizlarimizning jasorati haqida kinokartinalar yaratmoqda. "Vatan", "O'tov", "Voiz", "Yolg'iz yodgorim" filmlari shular jumlasidan. Bu mavzuda har qancha film suratga olinsa aslida kam. Vatanparvarlik juda muqaddas, o'ta nozik, inson qalbining tub-tubida saqlanadigan g'oyat yashirin tuyg'udir. Bu his insonda qachondan paydo bo'lishini hech kim bilmaydi va aytib bera olmaydi. Balki u qondan o'tar, balki tarbiya mahsulidir. Qanday shakllanmasin, har bir insondagi vatanparvarlik uning o'zi yashab turgan jamiyat qadriyatlari asosida vujudga keladi. Insondagi vatanparvarlikni shakllantiradigan omillardan biri esa, shubhasiz, san'atdir. San'at turlari ichida eng ta'sirchan va ommaviysi bo'lgan kinoning bu boradagi o'rni beqiyos. Albatta, kino odamni to'g'ridan-to'g'ri tarbiyalamaydi. Balki hayotiy voqealar, ta'sirchan vositalar orqali uni o'ylashga, ta'sirlanishga, qalbining o'zgarishi, tozalanib borishiga yo'l ochadi. Aynan mana shu holatda haqiqiy san'atning kuchi ko'rinadi.

Badiiy filmlarda vatanparvarlikka to'g'ridan-to'g'ri, ochiq va quruq targ'ibot bo'lishi mumkin emas. Muayyan mavzu va obrazli yechimlarning tagma'nosi, xulosasi vatanparvarlikni singdirmog'i lozim bo'ladi. Biz buni o'zbek kinosi durdonalari bo'lmish "Sen yetim emassan" (rejissyori Sh.Abbosov) filmida mehr orqali, "41-yil olmalari" (rejissyori R.Botirov) filmida otaxonlar jasorati misolida, "Suyunchi" (rejissyori M.Abzalov) filmida millatning qadriyatlarini asrashga uringan buvi timsolida ko'rishimiz, anglashimiz mumkin. Har bir davr va jamiyat o'z san'atini yaratadi. Bu o'sha davrning ijtimoiy muammolari, axloqiy qarashlari, insonlarning hayotiy maslak va qadriyatlari, xalqning orzu-istaklari va jamiyatning maqsad-intilishlaridan kelib chiqadi. Shu sababli o'zbek kinosi tarixida turli davrlarda turlicha mavzular ustuvorlik qildi. Vatanparvarlik g'oyasi ko'tarilgan filmlar odatda yurtni bir maqsad yo'lida birlashtirish zarur bo'lganda-gina kerak bo'ldi. Xususan, bu boradagi katta ko'tarilish Ikkinchi jahon urushi yillarida va shu mavzuga bag'ishlangan filmlarda yaqqol aks etdi. Albatta, keyingi yillarda bu borada bir qancha ishlar qilindi. Xususan, Ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan filmlar ko'paydi va bu kartinalarni tomosha qilgan xalqimizda o'z millatidan g'ururlanish, vatanni asrab-avaylashga rag'bat uyg'onganini ishonch bilan aytish mumkin. O'zbek xalqining buyuk farzandlari haqidagi "Said bilan Saida", "Muhabbat bahori", "Abdulla Oripov" filmlari ham yosh avlodni tarixni bilishga, adabiyotni o'rganishga, fikrlashga, ulug' millatning

vakili ekanini anglashiga kuchli turtkilardan bo'ldi. "Mehr" operatsiyasi tufayli Suriyadagi o'zbekistonlik ayollar va bolalarning olib kelinishi ifodalangan "Tutqunlik", "Ayol qismati" kabi filmlar har bir inson uchun vatanidan yaxshiroq joy bo'lmasligini, O'zbekiston uchun har birimiz kerak ekanimizni ko'rsatib qo'ydi.

Bizda "bozor" degan tushunchaning ortida oldi-qochdi ko'rsatuvlar, faqat tomoshabin yig'sa bo'ldi, degan iddao kino san'ati sohasida ham avjiga chiqdi. Harbiy vatanparvarlik mavzusida suratga olinayotgan filmlarning tomoshabin qalbidan o'rin ololmasligi, hayotiy emasligi — bularning hammasi "buyurtmani, topshiriqni bajardingmi — bajarding" tarzida qilinayotgani ko'rinib turibdi. Holbuki, film ssenariysini saviyali qilib yozadigan ijodkorlar ko'p oramizda. Zo'r yozuvchi va ssenariynavislar bor. Afsuski, bugungi kunda kinoni rejissyorning o'zi hal qilyapti. Ssenariyni ham o'zining qarichi bilan o'lchaydi. Shu tariqa soxta, saviyasi past, tomoshabinni bezdiradigan kinolar yuzaga kelyapti.

Bir paytlar o'zbek filmlari rus tilida yaratilib, keyin o'zbek tiliga dublyaj qilingan. O'shanda ham milliy vatanparvarlik ruhi ufurib turgan. Masalan, "Mahallada duv-duv gap" filmini olaylik. Filmdagi xalqimizga xos samimiyat, o'zbekonalik ssenariy muallifi Abdulla Qahhor bilan bog'liq. "Peshonangda shaftolining danagini chaqadi", degan iborani qarang. Qochirim yoki askiyalarning hammasi Abdulla Qahhor tahriridan o'tgan. Shuning uchun u kino yashab turibdi. Yana bir film — "Shum bola". Masalan, men "Shum bola"ni qachon ko'rsam ham maza qilaman. To'g'ri, kitobning mazmunini siyosiy jihatlarga burishgan. Lekin asosida katta bir yozuvchining, shoirning "Shum bola" qissasi turgani sabab ham mazkur kinokartina zo'r chiqqan.

Milliy vatanparvarlik deganda, albatta, harbiylar ko'z oldimizga kelishi kerak emas. Barcha insoniy fazilatlar, xalqning tutumlari ham milliy vatanparvarlikni ifodalashi mumkin. Xohlagan mavzuda vatanparvarlik kinosini yaratsa bo'ladi. Umuman olganda, o'zini hurmat qilgan davlatlarning har qanday kinosi, ko'rsatuvi, qo'shig'i milliy manfaatga xizmat qiladi. Bizda bu borada oqsashlar borligini inkor eta olmaymiz. Buning yechimi qaerda, degan haqli savol tug'iladi. Haqiqiy ssenariynavislar, professional yozuvchilarni kinoga jalb qilish kerak. Ular bilan hisoblashadigan rejissyorlarni birlashtirish kerak. Milliy vatanparvarlik ruhida kino yaratmoqchi ekanmiz, millatning fe'l-atvori, tilini yaxshi biladigan yozuvchi va rejissyorni rag'batlantirish zarur. Ayni mana shu kinolarning targ'iboti ham keng ko'lamda yuritilishi lozim.

Biz maktabda bolani 11 yil vatanparvarlik ruhida o'qitsakda, bir marta ko'rgan ko'rsatuv yoki bema'ni film butun qilingan mehnatni yo'q qilishi mumkin. Shuningdek, puch, noprofessional kinolar ma'naviyatimizga nisbatan qo'poruvchilik, deb hisoblayman. Chunki o'sha saviyasi past kinoni ko'rgan yoshlarda vatanparvarlik mavzusiga kinoya paydo bo'ladi, ensasi qotadi, jiddiy mavzu emas ekan, deb qaray boshlaydi. Bu esa biz uchun katta ma'naviy zarardir.

Bugun ham o‘zbek kinoijodkorlari tomonidan vatanga sadoqat, tinchlik ning qadri haqida qator filmlar suratga olinmoqda. Buni inkor etish kerak emas. O‘tgan besh yil kesimida ekranga chiqqan ayrim badiiy filmlarni eslab o‘tsak: Akbar Bekturdievning “Tinchlik ortida”, “O‘zbek qizi”, Dilmurod Masaidovning “Ayol qismati”, Jahongir Ahmedovning “Ilhaq”, Akrom Shohnazarovning “101-reys”, Rashid Malikovning “Tutqunlik”, Rustam Sa‘dievning “Baron-2: Sog‘inch”, Hasan Alijonovning “Hayot afsunlari”, Abduvohid G‘anievning “Elparvar”, Hilol Nasimovning “Vatan ostonasi”, Zulfiqor Musoqovning “Berlin — Oqqo‘rg‘on”, “Hayrat” kabi badiiy filmlari, Ali Hamroevning “Xalq jasorati”, Komil Sharafievning “Matonat” kabi hujjatli filmlari vatanparvarlik, tinchlik, farovon hayot tarannumiga bag‘ishlangan. Vatanparvarlik mavzusiga bag‘ishlangan “O‘zbek qizi”, “Ilhaq”, “Ayol qismati” kabi filmlarimiz xorij kinoijodkorlari tomonidan ham e‘tirof etilib, xalqaro kinofestivallarda gran-prini qo‘lga kiritdi.

Akbar Bekturdievning “O‘zbek qizi” filmida tarannum etilgan ozodlik, vatanparvarlik g‘oyalari sovuq urush fonida mahorat bilan tasvirlangan. Zebo G‘anieva haqidagi film yaratilishi va uni 9 may — Xotira va qadrlash kuni arafasida premera qilinishi e‘tirofli hodisa. Sababi, Zebo G‘anievani — Ikkinchi jahon urushi yillarida mohir razvedkachi va afsonaviy mergan sifatida nom qozongan o‘zbek qizini bugungi yoshlarning aksari bilmaydi. Nozik jussali, xushro‘y Zebo G‘anieva filmida umumlashma obraz bo‘lib, bu qahramon misolida urushga jalb etilgan o‘zbek qizlarining timsoli gavdalangan.

Xususan, Zebo G‘anieva, Muqaddam Ashrafova, Rahima Alimova kabi ko‘plab o‘zbek qizlari o‘z yaqinlarini himoya qilish niyatida urushga borgan va jasorat ko‘rsatgan. “O‘zbek qizi” filmi mana shunday kuchli va irodali o‘zbek qizlari haqida. Jahongir Ahmedovning “Ilhaq” badiiy filmi esa Ikkinchi jahon urushida besh farzandini urushga yuborib, ularning birortasini qayta ko‘rmagan, matonatli va sabrli o‘zbek ayoli timsolini ifodalaydi.

Milliy vatanparvarlik ruhidagi animatsion filmlarimiz juda kam. Sababi esa shu mavzudagi ssenariylar, umuman, adabiy asarlar yetarli emasligi bilan bog‘liq. Animatsion filmlar yaratilishi masalasiga ijtimoiy yo‘nalish, farzandlarimizning ongini himoya qilishga yo‘naltiruvchi vosita, deb qarash kerak. Bolalar filmlari ustida katta ijodiy guruh ishlashi lozim. Psixolog nuqtai nazari juda muhim. Bugun bolalarga qaysi rang va nima yoqishini, ular qalbiga qanday yo‘l topish kerakligini u yaxshi biladi. Kattalarcha fikrlab, “adabiyotda, tarixda bunaqa bo‘lgan”, degan iddaolar samara bermaydi. Aynan bolalar adabiyotidagi materiallardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ularning hammasi ham multiplikatsion film spesifikasiga to‘g‘ri kelavermaydi.

Tarixda barqaror urf-odat va an‘analarga ega bo‘lmagan ma‘lum bir jamiyat bo‘lmagan, demak, tarixiy xotirasiz yashagan yoki yashaydigan xalq ham bo‘lishi mumkin emas. Fikrni davom ettirib aytish mumkinki, an‘analarsiz hayot butun bir xalq

uchun, aslida, bu o‘z tarixini rad etish, insoniyatning yagona madaniy olamning bir qismi sifatida to‘plangan ko‘p asrlik madaniy va ma’naviy tajriba, tarixiy xotirani unutish, insonning tabiiy turmush tarzini yo‘q qilishdir. Shuning uchun ham “an’analar tarixiy barqaror, takrorlanadigan, umumbashariy ahamiyatga ega shakllar, faoliyat usullari va ijtimoiy guruhlar yoki umuman jamiyat munosabatlarini mustahkamlash, ko‘paytirish, boyitish va keyingi avlodlarga yetkazishning ijtimoiy mexanizmlari” hisoblanadi⁴.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ta’lim tizimi hamda boshqa ijtimoiy sohalarda tarixiy xotirani shakllantirish jarayoni bilan bog‘liq chora-tadbirlarda, xalq an’analari unsurlariga ham tegishli e’tibor qaratib, ularni tarixiy xotiraga bog‘liq jihatlaridan foydalanish o‘zlikni anglashda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Репина Л.П. Историческая наука на рубеже XX–XXI вв. // – М.: Кругъ, 2011. – 79 с.
2. Djilkishieva M.S. Grajdansko-patrioticheskoe vospitanie studencheskoy molodeji kazaxstana // Sovremennye problemi nauki i obrazovaniya. – 2012. – № 4. URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=6587> (data obrasheniya: 23.11.2020).
3. Lutovinov V. I. Grajdansko-patrioticheskoe vospitanie segodnya // Pedagogika. – 2006. – № 5. – S. 52–59.
4. Уледов А.К. Общественная психология и идеология. - М.: Мысль, 1985. 211 с.

⁴ Уледов А.К. Общественная психология и идеология. - М.: Мысль, 1985. 211 с.